

HAMID OLIMJON VA ZULFIYA IJODIDA TABIAT TASVIRI VA INSON RUHIYATI UYG‘UNLIGI

*TerDPI O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
talabasi Ismoilova Bahor Eshdavlat qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalqimiz suygan serqirra ijodkorlar, o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan bo‘lgan Hamid Olimjon va Zulfiya Isroilova ijodida peyzaj ya’ni tabiat tasviri hamda inson ruhiyati uyg‘unligi tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Peyzaj, syujet, san’at, tabiat lirikasi, bahor nashidası, obrazli ibora, obraz, inson ruhiyati.

Аннотация: В статье анализируется гармония пейзажа, то есть изображения природы, и человеческой психики в творчестве Хамида Олимжона и Зульфии Исроиловой, двух выдающихся представителей узбекской литературы, любимых нашим народом.

Ключевые слова: Пейзаж, сюжет, искусство, лирика природы, весенне стихотворение, образное выражение, образ, психика человека.

Abstract: This article analyzes the harmony of landscape, that is, the image of nature, and the human psyche in the works of Hamid Olimjon and Zulfiya Isroilova, two of the most diverse artists loved by our people and bright representatives of Uzbek literature.

Keywords: Landscape, plot, art, nature lyrics, spring hymn, figurative expression, image, human psyche.

Peyzaj atamasi fransuzcha "paysage" so‘zidan olingan bo‘lib, mamlakat, joy degan ma’nolarni anglatadi. Rassomlik va haykaltaroshlik sohalarida tabiatni aks ettiruvchi janr yoki shu janrda yaratilgan alohida asar bo‘lsa, badiiy adabiyotda badiiy so‘z vositasidagi tabiat tasviri, ifodasidir. Peyzaj yozuvchining o‘z asarida tanlagan ifoda usuli va ijodiy uslubi bilan bog‘liq holda turlicha vazifalarni bajarishi mumkin. Tabiat manzarasi tasviri orqali yozuvchi o‘zining yurtiga, Vataniga, ona tabiatga bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Tabiat tasviri syujetning tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, asarning g‘oyaviy-estetik quvvatini oshirish, syujet rivojini tezlatish yoki sekinlatish, qahramonning ichki dunyosini ochish kabi vazifalarni ba-jaradi. Bu bilan peyzaj badiiy asarda ishtirok etuvchi personajlarni yanada to‘laqonli ifodalashga yordam beradi. Badiiy asarda peyzajdan 2 xil usulda foydalilanadi: qahramonning ruhiy holatini tabiat tasviri bilan parallel ravishda tasvirlash va qarama-qarshi usulda tasvirlash. Peyzaj tasviri orqali muallif o‘zining asosiy g‘oyaviy niyatini ilgari surishi ham mumkin.

XX asr o‘zbek adabiyoti tarixida o‘zining umrboqiy asarlari ila o‘chmas iz qoldirgan Hamid Olimjon, adabiy merosi she’riyatimizda muhim ahamiyatga ega ijodkordir. Adib g‘oyat qisqa, ammo sermazmun hayoti davomida she’riy asarlar, ko‘plab hikoya va ocherklar, dramalar, publitsistik va adabiy tanqidiy maqolalar yozdi. Uning "Ko‘klam" nomli ilk she’rlar to‘plami va "Tong shabadasi" hikoyalar to‘plami talabalik yillarida chop etildi. Shu tariqa shoir qaynoq ijodiy va ijtimoiy faoliyat bilan shug‘ullana boshladi.

Yangi o‘zbek she’riyatida lirk Janrlarning rivoj topishida Hamid Olimjonning ham hissasi beqiyosdir. Nozik hissiyot va kechinmalar musavvirining ijodiy merosida ko‘plab tabiat lirkasiga bag‘ishlangan she’rlar uchraydi. Ular orasida "Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi..." deya boshlanuvchi "O‘rik gullaganda" nomli she’ri alohida ajralib turadi. Ushbu she’r yurtimizga bahor faslining kirib kelish nashidasi, madhini mujassam etadi. "O‘rik gullaganda" she’ri faqatgina bahor faslidagi tabiat tasvirini emas balki shoirning ichki dunyosi, ruhiy kayfiyatini ham ifodalaydi.

Novdalarni bezab g‘unchalar,

Tongda aytdi hayot otini

Va shabboda qurg‘ur ilk sahar

Olib ketdi gulning totini

Ushbu misralarda bahorning kelishi, uyg‘onish va yangilanish ramzi sifatida ifodalananadi. Ilk misrada qishning qahratonidan omon qolgan daraxt novdalari fasllar kelinchagi bo‘lgan bahor kelishi bilanoq g‘unchalar ila bezalishi tasvirlanadi. G‘uncha umid, go‘zallik va yashash istagini bildiradi. Ikkinchi misrada tong yangi kunning, hayotning boshlanishi sifatida talqin etiladi. “Hayot otini aytish” – bu obrazli ibora bo‘lib, yashash, harakatga kelish, hayotni boshlash ma’nolarini anglatadi, go‘yoki tabiat yangi kun bilan uyg‘onmoqda. Keyingi misralarda bahorning iliq, yengil shamoli, yangi kunning ilk daqiqalarida gulning totini ya’ni uning ifori hamda go‘zalligini olib ketishi yuksak mahorat bilan tasvirlangan. Bu yerda shabboda inson mehrini bildirayotgandek, lekin bir vaqtning o‘zida nozik, o‘tkinchi hodisani mujassam etadi, shabboda gulning totini olib ketishi esa hayotning o‘tkinchiligi, go‘zallik va lazzatning bir zumda yo‘qolishini ifodalaydi.

Shoirning lirk qahramoni san’atning, go‘zallikning qadriga yetadi. Ko‘z oldida namoyon bo‘lgan tengsiz san’at asari - tabiat manzaralarini poymol bo‘lmasligini istaydi. Bunday vaziyatda adibning naqadar tabiatga oshufta, qalbi esa qanchalar go‘zallikka oshno ekanligini anglashimiz mumkin.

Tinimsizdir yolg‘iz shabboda,

Maysalarning sochi silkinar,

Mana, hozir chirqirab turgan

Parrandalar, qushlar ham tinar...

Bu she'riy parcha ham tabiiy manzara orqali falsafiy va hissiy holatni ifodalaydi. Birinchi misrada "shaboda" – bahorning yengil, muloyim shamoli, "tinimsiz" va "yolg'iz" so'zлari esa uning doimiyligi va yolg'izlikda harakat qilayotganini bildiradi. Bu yerda shabboda go'yoki hayotning doimiy oqimi, ammo yolg'iz harakat qiluvchi kuch sifatida tasvirlangan. Bu satrda biroz g'amgin ohang ham bor – shabboda doimiy harakatda bo'lsa-da, yolg'iz. Ikkinci misrada personifikatsiya (insoniyashtirish) vositasi orqali yaratilgan – "maysa"ga "soch" nisbat berilgan. Shabboda maysalarning sochini silkitayotgani – bu tabiatning harakati, tirikligi, go'zalligi, lekin ayni paytda nozikligi va o'tkinchiligi haqida ham ishora berib turadi. Keyingi misralarda esa shovqin-suron, hayotning jo'shqinligi, ayni paytda lahzaning jonli tasviri berilgan. "Chirqirab turgan" – qushlarning ovozi, bahorning harakati, hayotning qaynashi kabi tushuniladi. Uyg'unlikda yashayotgan, shovqin solayotgan qushlar bir payt tinchlanishini bildiradi. Bu hayotning muvozanati, goh harakatda, goh sukunatda kechishini aks ettiradi. Har qanday harakat orqasidan tinchlik, osoyishtalik keladi degan fikr ham bor. Parcha bahorning iliq tongida hayotning uyg'onishini, tabiatdagi harakat va osoyishtalik muvozanatini tasvirlaydi. Shabboda – doimiy, ammo yolg'iz; maysa – nozik va chiroyli; qushlar – hayotning ovozli belgisi. Ammo har qanday shovqin-suron oxir-oqibat sukunatga aylanishi, har bir harakatdan so'ng tinchlik kelishi fikri bilan yakunlanadi. Bu hayot falsafasining chuqur, poetik ifodasidir.

Otashnafas shoir Hamid Olimjonning turmush o'rtog'i, vafo va sadoqat timsoli bo'lgan o'zbek shoirasi Zulfiya Isroilovaning ijodiy merosida ham ko'plab peyzaj tasvirini uchratishimiz mumkin. Uning she'rlari harorat bilan bitilgan ehtirosli, hayotbaxsh she'rлardir. Ular xoh vatan haqida, xoh insonlarning turfa his-tuyg'ulari yoki tabiat manzaralari xususida bo'lsin, barchasida hayotsevarlik, yashashga intilish, o'quvchida o'zgacha bir kayfiyat baxsh etish istagi hukmrondir. Ushbu fikrlarning isboti sifatida uning "Bog'lar qiyg'os gulda..." deya atalgan she'ridan parcha keltirishimiz mumkin.

Bog'lar qiyg'os gulda - yaxlit bir chaman,
 Har daraxt anvoyi bir tarovatda.
 Bir kaft bog' mehnat-u hosilga vatan,
 O'zga ko'rk, o'zga rang har bir daraxtda.
 Har navda bir gulda, har gulda bir ro'y,
 Har daraxt bargi bir dunyo hikoya.
 Har birin hosili o'zgasiga ko'rk,
 Biri biri uchun qudrat, himoya.

Ushbu she'rda muallif bahorning gulga burkangan go'zal manzarasini tasvirlar ekan, uni ramziy ma'noda qo'llaydi. «Bir kaft bog'», ya'ni yaxlit bir manzil - Vatanda turlicha tarovat, turli bo'y tarqatuvchi daraxtlar bor. Ularning har biri o'zicha ko'rk, o'ziga xos meva-yu hosil beradi. Go'yo har bir daraxt bu bir-biriga o'xshamaydigan

millat va elatlar. Ularning har birining o‘z tarixi, o‘z urf-u odatlari, yashash tarzi bor. Lekin ular bitta bog‘da - bir maskanda, ya’ni bir Vatanda - O‘zbekistonda jam bo‘lganlar. Ular turli millat va elatlar bo‘lsa ham, bir xalq - O‘zbekiston xalqi farzandlaridir. Shoira Zulfiyaning qalbiga ehtiros va ilhom bag‘ishlagan tuyg‘u - bu bahor kelib, bog‘- rog‘larning jonlanishi, daraxtlar qiyg‘os gullab, tevarak-atrofning chamanzorga aylanishidir.

Rasul Hamzatov zalqimizning ardoqli adibasi Zufiyaxonimga nisbatan quyidagicha ta'rif beradi: "Agar Zulfiya Armanistonda tug‘ilganda - Silva, Leningradda tug‘ilgan - Berggols, Bulg‘oriyada tug‘ilganda - Bagryana, Yugoslaviyada tug‘ilganda ham Desanka Maksimovichdek mashhur shoira bo‘la olar edi". Shuningdek, "Zulfiya va she’riyat. Zulfiya va qo‘sinq - bu so‘zlarni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi.

...Zulfiya, uning ijodi, she’riyati ma’naviy turmushimizning milliy madaniyatimizning bir qismiga aylanib ketgan" - deya faxr ila so‘zlaydi Mustay Karim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Hamid Olimjon va Zulfiya ijodida tabiat tasviri salmoqli o‘rinni egallaydi. Vatan madhi, insonlar ruhiyati tabiat tasviri bilan hamohanglikda keltirilib o‘tiladi. Yasharish fasli bo‘lgan Bahor tasviriga katta urg‘u berilgan. Bahor– insonning yoshlik davriga qiyoslangan. Bu davrda barcha tuyg‘ularning barq urishi, shakllanishi ta’kidlanadi. Hamid Olimjon va Zulfiya ham shu davrda insonda ruhiy shakllanish va kamolot topishiga poydevor bo‘lishini inobatga olib, ruhiyat tasvirini tabiat bilan bog‘lab tasvirlashgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. S.Ahmedov, R.Qo‘chqorov, Sh.Rizayev. 6-sinf adabiyot darsligi 79-93 betlar Toshkent "Ma'naviyat" 2017
2. B.To‘xliyev, B.Karimov, K.Usmonova 10-sinf adabiyot darsligi 71-80 betlar. "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy tashkiloti Toshkent–2017
3. tafakkur.net Hamid Olimjon she’rlari <https://tafakkur.net/sherlar/hamid-olimjon>
4. tafakkur.net Zulfiya she’rlari <https://tafakkur.net/sherlar/zulfiya?s=yuqori-baholangan> tarix.sinaps.uz Hamid Olimjon
5. <https://tarix.sinaps.uz/hodisa/hamid-olimjon/>